

**PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA ZAMONAVIY DIDAKTIK
VOSITALARNING AHAMIYATI
IMPORTANCE OF MODERN DIDACTIC TOOLS IN IMPROVING
PEDAGOGICAL SKILLS**

Qayumova Lola Nasimovna

**Buxoro davlat pedagogika instituti 5A110901- Pedagogika nazariyasi va tarixi
magistratura mutaxassisligi 2-bosqich talabasi**

Kayumova Lola Nasimovna

**Bukhara State Pedagogical Institute 5A110901- Pedagogical theory and history
2nd stage student**

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilaning pedagogik mahoratini oshirishda zamonaviy didaktik vositalar, xususan axborot-texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: mahorat, texnologiya, kommunikatsiya, kompyuter, faoliyat, vosita, dasturlar, masofali o‘qitish, elektron ta’lim, kompyuter texnologiyasi, axborot texnologiyasi.

Abstract. The article examines the importance and possibilities of using modern didactic tools, especially information technologies, in improving the pedagogical skills of future teachers.

Key words: skill, technology, communication, computer, activity, tool, programs, distance learning, e-learning, computer technology, information technology.

«Ogoh bo‘lsang olam senniki», degan edi Hazrat Navoiy. Darhaqiqat bilim–bu axborotlar majmui, ma’lumotlar yig‘indisidir. Axborot esa–bilim, ko‘nikma, malakalar manbai, izohidir. Inson hayoti davomida doimo bilimga, axborotga intilgan va tabiat, jamiyat taraqqiyoti uchun muayyan ma’lumotlarni egallay olgan. Bilimlarni qo‘lga kiritish, ko‘nikma, malakalarni o‘zida hosil qilishning yo‘llarini, qurolini kashf etishga intilgan va bunga ma’lum darajada erisha olgan.

Shu tariqa inson dastlab qalam, yozuv mashinasini, keyinchalik telegraf, telefon, radio, televideniyaning kashf etishga sazovor bo'ldi. Hayotning mazmunini izlash, izlanishda deb bilgan odamzot va nihoyat kompyuter, sputnik, internetni yaratishga muvaffaq bo'la oldi. Bu esa insonning bilimdonligi ijodkorligi, kashfiyotlilikidan dalolat beradi.

Biz bu mavzuni o'rganishda inson aql-zakovatining mevasi bo'lgan axborot va kommunikativ texnologiyalar xususida fikr yuritib, ularning o'qituvchi pedagogik mahoratini oshirishda ahamiyatini yechishga harakat qilamiz. Dastlab zamonaviy axborot texnologiyalari bilan tanishib chiqamiz.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, yuksak ma'naviy-axloqiy salohiyat va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda o'qitishning axborot texnologiyalari muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Zero, axborotlashtirish–fan-texnikaning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlash, mutaxassislarning innovatsion–industrial kamoloti va intellektual faoliyatini axborotli malakaga aylantirishning asosidir. Axborotli malaka ta'lim va tarbiya masalalariga axborotlarni moslashtirish va talqin qilish malakasi ekanligini anglatadi. Shunga ko'ra axborotlashtirish yoki axborotli malakaning asosiy maqsadi egallanadigan ixtisoslik shaxsiy intellektual faoliyat mazmunida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish yordamida ta'lim samaradorligini oshirish, o'qitish jarayonini to'liq axborotlashtirish imkoniyatlariga ega bo'lish va shu asosda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijalarini o'quv-tarbiya jarayoniga keng tadbiq etishni nazarda tutadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari bu axborot ustida bajarish mumkin bo'lgan zamonaviy texnologiyalardir. Zamonaviy axborot texnologiyalari: kompyuter texnologiyalari, tarmoqlar, Internet, mul'timedia. Jurnalistika va ommaviy axborot vositalarida informatsion texnologiyalarning quyidagi guruhlari mavjud:

- nashriyotda zamonaviy axborot texnologiyalari;
- radioda zamonaviy axborot texnologiyalari;
- televideniya da zamonaviy axborot texnologiyalari.

Hozirgi kunda kompyuter hayotimizning barcha sohalariga jadallik bilan kirib bormoqda. Turli mutaxassislar, tadbirkorlar, olimlar, ijodkorlar o'z mehnati faoliyatida kompyuterlardan keng foydalanmoqda. Kompyuter yordamida ajoyib mo'jizalar yaratilayotgani sari bo'lmay qoldi. Kelajakni uning siz tasavvur qilish mumkin emasligi shu kunda barchaga ayondir. Bugun kompyuterda hisoblash, yozish, o'qish, o'rganish, gapirish, saqlash, chizish, qayta ishlash, saralash, musiqa yozish, axborotni olish va biror manzilga yuborish, taxrirlash, maketlar tayyorlash, audio va video yaratish, o'ynash mumkin. Uning imkoniyatlari kundan-kunga ko'paymoqda, shuning uchun u ishda, o'qishda, uyda va hatto dam olishda insonning eng ishonchli do'stiga aylandi.

Kompyuter ilmining bilimdonlaridan biri Turg'un Azlarov «axborot» tushunchasining mohiyati, xususiyatlari, axborot jarayonlari, axborotlarni to'plash, saqlash, uzatish, qayta ishlash, axborotni tasvirlash davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqar ekan, bularning barchasini amalga oshiruvchisi kompyuter deb atadi va kompyuter to'g'risida ma'lumot berish yo'llarini, uning ishlash texnikasi va texnologiyasi tavsiya qildi.

Shunga asosan keyingi yillarda mamlakatda, avvalo, o'quv-tarbiya muassasalarining ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish (barcha o'quv fanlarini kompyuter yordamida o'qitishni yo'lga qo'yish) va kompyuter savodxonligini ta'minlash yo'nalishida katta ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Chunki, pedagogika fanlari doktori A.Hayitov yozganidek kompyuter ta'lim vositasi sifatida quyidagi maqsadlarda foydalaniladi.

- qonuniyatlar va tabiat hodisalarini namoyish qilishda;
- jarayonlarni modellashtirishda;
- ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadida mashq qilishda;
- amaliy dasturlar bilan ishlashda;
- bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilishda;
- amaliy dasturlar bilan ishlashda;

- o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida ta’lim natijalarini qayta ishlashda;

- o‘qituvchini o‘qitishda optimal yo‘lni tanlab olishda;

- o‘qitishning o‘zida»¹.

Ushbu maqsadlarni to‘la amalga oshira olganligi, axborotlarni to‘plash, uzatish, saqlash va qayta ishlash imkoniyatlari mavjudligi uchun kompyuterlar ta’lim jarayonining eng qudratli va egiluvchan vositasi hisoblanadi. Shuningdek, kompyuter oldindan tayyorlangan dastur asosida apparat (kompyuter) va o‘quvchi-talaba o‘rtasida dialogni o‘rnatadi. Shu nuqtai nazardan kompyuter dasturlashtirilgan ta’limga yaqin turadi. Olimlar, kompyuter bilimdonlari fikri, kuzatishlar va tajribalarning ko‘rsatishicha kompyuterlar turli yo‘nalishdagi vizual axborotlarni namoyish etish imkoniyatiga ega. U dunyo miqyosidagi ma’lumotlarni aniqlay va saqlay oladi. Shuning uchun kompyuter axborotni namoyish etish, o‘qituvchi o‘quvchining muayyan axborotlarni qanday darajada o‘zlashtirilganligini bilish uchun teskari aloqa ham o‘rnata oladi. Chunki, bunda dastur o‘quvchi o‘zlashtirgan ma’lumotlar natijasini ko‘rsata oladi va unga kerakli yordamni bera olish imkoniyatiga ham ega. Bunda «odam–kompyuter» dialogi amalga oshadi. Kompyuter o‘quv-tarbiya jarayonining qudratli va egiluvchan (o‘zgaruvchan) vositasi ekan, bugungi kunda ta’limni kompyuterlashtirish muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa hisoblanadi. Buning uchun pedagogika fanlari doktori A.Hayitov ta’kidlaganidek «..kompyuterlashtirish jarayonining tarkibi sifatida uchta element -kompyuterlashtirishga oid faoliyat, kompyuterlashtirish vositasi, kompyuterlashtirish predmeti ajratiladi»². Va bu elementlar hamkorlikda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatlarini moddiylashtirib, har bir fanning mazmunini inobatga olgan holda dars jarayonini axborotlashtirishga yordam beradi. Natijada, pedagogik jarayon uchun zarur dasturiy vositalar, ularning metodik

¹ Hayitov A. Yangi axborot texnologiyalari pedagogik texnologiyaning asosiy vositasi sifatida//“O‘qitishning pedagogik –psixologik muammo va istiqbollari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.-Buxoro, 2002. 124-bet.

² Hayitov A. Ta’limni sinf-dars tizimi asosida kompyuterlashtirish//Xalq ta’limi. 2005. 4 son, 8bet.

ta'limoti, dasturlash mexanizmlari ishlab yangi axborotlar to'planadi, saqlanadi va undan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi. Ko'rib o'tganimizdek, kompyuterlar ta'limni axborotlashtirishning eng muhim vositalari hisoblanadi. Shu o'rinda qayd etish joizki kompyuterlar ta'limda qo'llaniladigan texnik-didaktik vositalar majmuining eng yangi avlodi. Shu bilan birga eng ko'p taraqqalgan va eng ko'p samara beradigan didaktik vositasi hisoblanadi. Chunki, kompyuter yordamida ta'lim-tarbiyaga oid bajariladigan barcha ishlarni amalga oshirish mumkin va uning didaktik imkoniyatlari ham juda keng. Shunday bo'lsada kompyuterlar to'g'risida mukammal ma'lumotga ega bo'lish, ulardan qachon va qanday foydalanish haqida ma'lumotga ega bo'lish foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Amonov M. N. The problems of designing professional skills and independent training of future teachers in Uzbekistan //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 3. – С. 22-26.

2. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.

3. Турсунов Р. Б. Ў. Таълимда ахборот коммуникацион технологияларни қўллаш тенденциялари //Academic research in educational sciences. – 2020. – №. 1. – С. 324-331.

4. Жўраев Т. Н. Электрон дарсликларда билимни баҳолашнинг интерфаол усуллари («Информатика ва ахборот технологиялари» фани мисолида) //Современное образование (Узбекистан). – 2019. – №. 3 (76). – С. 54-59.